

**O'ZBEKISTONDA TRANSFERT NARXLARNI BELGILASHDA
SOLIQ NAZORATIDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI VA
USULLAR TAHLILI**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchi

Abdiev Jaxongir Ibragimovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada transfert baholardan foydalanish, operatsion segmentlar bo'yicha moliyaviy va boshqaruv hisobotlarini taqdim etish» lozimligi belgilab qo'yilgan. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, «Buyuk Britaniya va AQSh kompaniyalari o'rtasida AQSh Federal soliq xizmati (IRS) tomonidan savdo bitimlari jarayonida transfert bahoni shakllantirishda roylati va boshqa xarajatlarni noqonuniy taqsimlash natijasida olingan 3,4 mlrd. dollarlik daromadni Angliyada joylashgan Bosh korxonaga qaytarilganligi» masalaning jiddiy va muhimligidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: soliq, fiskal siyosat, byudjet, soliq ma'muriyati, soliq salohiyati, normativ tahlil, ijobjiy tahlil, soliq yuki, vakillik soliq stavkasi, o'rtacha stavka, soliq hisoboti, soliq tushumlari, tahlil, pozitiv tahlil, soliq yuki, bozor narxi, boshqaruv hisobi, transfert baho.

Kirish: O'zbekiston Respublikasida transfert narxlari shakllanishini nazorat qilish yo'nalishi yangiligi, nazorat jarayoni endi boshlanayotgani tufayli transfert narxlari shakllanishi hisobiga byudjetga soliq tushumlarining to'liq tushmasligini aniqlash muhim hisoblanadi.

Transfert narxni tartibga solishning bir qismi sifatida O'zbekistonda transfert narx shakllanishi nazoratini amalda qo'llash hamda yangi qoidalarni o'rganib borish va qo'llash, O'zbekiston qonunchiligidagi bo'shliqlarni to'ldirish muhim hisoblanib, tadqiqot ishining dolzarbligini va tanlangan mavzuning hozirgi davrda yechimini kutayotgan muhim mavzuga bag'ishlanganligini ko'rsatadi.

Soliq kodeksining 37-moddasida o'zaro bog'liq bo'lgan shaxslarga tarif berilgan. Soliq kodeksining 180-moddasida o'zaro aloqador shaxslar o'rtasidagi nazorat qilinadigan bitimlarga tarif berilgan. Bunda yuqoridagi 2 ta moddaning birida o'zaro bog'liq bo'lgan shaxs bilan o'zaro aloqador bo'lgan shaxslar bir xil manoni anglatadi (*Kodeksning rus tilidagi matnida 2 ta moddada ham "Vzaimosvyazannye litsa" deyilgan. Tarjimada 2 xil tarjima qilingan*).

Soliq kodeksining 37-moddasiga muvofiq o'zaro bog'liq bo'lgan shaxslar quyidagicha bayon etilgan. Agar shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari ushbu shaxslar tuzadigan bitimlarning shartlariga va (yoki) natijalariga va (yoki) ushbu shaxslar faoliyatining iqtisodiy natijalariga yoki o'zlarini vakil qilgan shaxslarning faoliyatiga ta'sir ko'rsatsa, ushbu qismda ko'rsatilgan shaxslar soliq solish maqsadlarida o'zaro bog'liq bo'lgan shaxslar deb

Nazorat qilinadigan tashqi savdo bitimlari tarkibiga kiruvchi tovarlar tahlilida quydagilarni ko'rshimiz mumkin.

Soliq kodeksining 181-moddasiga muvofiq, nazorat qilinadigan bitimlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

- 1) jahon birja savdosi tovarlarining tashqi savdosi sohasidagi bitimlar;
- 2) taraflaridan birining ro'yxatdan o'tkazilish joyi, yashash joyi yoki soliq rezidentligi joyi offshor yurisdiksiya bo'lgan shaxs hisoblanadigan bitimlar.

Agar bunda O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsining faoliyati offshor yurisdiksiyada doimiy muassasani tashkil etsa va nazorat qilinadigan bitim ushbu faoliyat bilan bog'liq bo'lsa, ushbu bitim qismida mazkur yuridik shaxsga ro'yxatdan o'tkazilish joyi ushbu offshor yurisdiksiya bo'lgan shaxs sifatida qaraladi.

Ushbu moddaning birinchi qismi 1-bandida nazarda tutilgan bitimlar, agar bunday bitimlarning predmeti quyidagi tovar guruqlaridan birining yoki bir nechtasining tarkibiga kiruvchi tovarlar bo'lsa, nazorat qilinadigan bitimlar deb e'tirof etiladi:

- 1) rangli metallar;
- 2) qimmatbaho metallar;

- 3) mineral o'g'itlar;
- 4) uglevodorod xom ashyosi va neft mahsulotlari;
- 5) paxta tolasi va kalava ip.

Coliq qo'mitasining arizasiga ko'ra sud bitimni ushbu moddada belgilangan nazorat qilinadigan bitim belgilariga javob bermasligiga sabab bo'ladigan sharoitlar yaratish maqsadida tuzilgan bir turdag'i bitimlar guruhining qismi deb taxmin qilinishi uchun yetarli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda ham nazorat qilinadigan bitim deb e'tirof etishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida yuqorida sanab o'tilgan 5 xil turdag'i tovarlarning tashqi savdosi sohasidagi bitimlarni nazorat qilinadigan bitim deb e'tirof etilishining sabablari deb shuni e'tirof etishimiz mumkinki, mazkur tovarlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-noyabrdagi "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5587-sonli Farmoni bilan 2019-yil 1-yanvardan qo'llaniladigan soliq imtiyozlari tatbiq etilmaydigan eksport qilinadigan xom ashyo tovarlari ro'yxati tasdiqlangan. Shu bilan birga shuni qayd etishimiz kerakki, Farmonda mavjud bo'lмаган tovar va xizmatlar eksportidan olingan foydaga foyda solig'ining 0 stavkasi qo'llanishi hisobiga transfert narx mavjudligini tekshirish faqatgina vaqt sarflanishiga sabab bo'ladi.

Soliq kodeksining 186-moddasida transfert narxni belgilashda soliq nazoratida foydalilaniladigan usullar to'g'risidagi umumiylar qoidalar yoritilgan.

Unga muvofiq, transfert narxni belgilash chog'ida soliq nazorati o'tkazilganida (shu jumladan nazorat qilinadigan bitimning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlari hamda uning natijalari taqqoslanadigan bitimlarning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlari hamda ularning natijalari bilan taqqoslanganda) Soliq qo'miasi quyidagi usullardan foydalaniadi:

- 1) taqqoslanadigan bozor narxlarining usulidan;
- 2) keyingi realizatsiya qilish narxi usulidan;
- 3) xarajat usulidan;
- 4) taqqoslanadigan rentabellik usulidan;

5) foydani taqsimlash usulidan.

Zarur bo'lgan hollarda ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan ikki va undan ortiq usullar kombinatsiyasidan foydalanishga yo'l qo'yiladi. Endi mazkur usullarni qo'llashning bir biridan farqini yoritib bersak. Bunda GSL Law & Consulting kompaniyasining rezidentlar uchun audit va konsalting bo'limi boshlig'i Yekaterina Davyidovaning ma'lumotlaridan foydalanib, uni Soliq kodeksi talablarini inobatga olgan holda quyidagicha yoritib beramiz¹.

Taqqoslanadigan bozor narxlari usuli, agar Soliq kodeksining 189-moddasining ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, nazorat qilinadigan bitimlar narxlarining bozor narxlariga muvofiqligini soliq solish maqsadida aniqlash uchun ustuvor hisoblanadi. Ya'ni tovar nazorat qilinadigan bitim doirasida olinganda va taraflari mustaqil shaxslar bo'lgan bitim doirasida qayta ishlanmagan holda qayta sotilgan holatdan tashqari bo'lgan hollarda taqqoslanadigan bozor narxlari usuli ustuvor hisoblanadi. Misol uchun kompaniya o'zaro bog'liq yuridik shaxsdan tovar sotib oldi, bitim nazorat qilinadigan bitimlar toifasiga kiradi. Bunday bitimlarda soliqqa tortish uchun daromadni qanday usul bo'yicha hisoblashni aniqlaymiz.

Yuqoridagi usullardan foydalangan holda hisoblangan bozor narxlari, foyda va zararlar, agar bu tekshiruv o'tkazilayotgan bitim ishtirokchisi tomonidan byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasining kamayishiga olib kelmasa, soliq organlari tomonidan qo'llaniladi.

Taqqoslanadigan bozor narxlari usuli

Bozor narxini aniqlashning bu usuli, eng aniq hisoblanadi. Agar bozorda o'zaro bog'liq bo'limgan shaxslar o'rtasida bir xil (agar mavjud bo'lmasa, bir xil) tovarlar bo'yicha kamida bitta taqqoslanadigan bitim va u haqida yetarli ma'lumot mavjud bo'lsa, bu nazorat qilinadigan bitimda qo'llaniladigan narxning bozor narxiga muvofiqligini aniqlash imkonini beradi. Soliq to'lovchining o'zaro bog'liq bo'limgan shaxslar bilan tuzilgan bitimlari ham taqqoslanadigan bitimlar sifatida ishlatalishi mumkin. Bundan tashqari, "bozor narxlari to'g'risida ommaga ochiq

¹ <https://gsl-news.org/369663-rasschityvaem-rynochnuyu-czenu-po-vzaimo-2/>
www.tadqiqotlar.uz

ma'lumotlar" ham inobatga olinadi.

Boshqacha qilib aytganda, tahlil qilinadigan bitimlarning narxini quyidagilar bilan taqqoslash mumkin:

bozordagi har qanday mustaqil ishtirokchilar o'rtasida tuzilgan bitimlarning narxi (ular tahlil qilinayotgan bilan taqqoslanadigan bitimlar tuzganda);

soliq to'lovchining o'zaro bog'liq bo'limgan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar narxi (bitimlar ham tahlil qilinayotgan bilan solishtirilishi kerak);

bir xil tovarlarning hamma foydalanishi mumkin bo'lgan manbalardagi narxlari — reklama, narx-navolar, kataloglar va boshqalar.

Usulning mohiyati. Jamiyat tomonidan o'zaro bog'liq bo'lgan shaxs bilan tuzilgan bitimning narxi bozorning mustaqil ishtirokchilari bilan tuzilgan bitimlar narxlari bilan taqqoslanadi. Bunda bitimlar predmeti bir xil (o'xshash) tovarlar hisoblanadi. Yoki bitim narxi bir xil tovarlar bilan tashqi, o'zaro bog'liq bo'limgan ishtirokchilar tomonidan tuzilgan bitimlar narxlari bilan taqqoslanadi. Agar faqat bitta taqqoslanadigan bitim to'g'risida ma'lumot mavjud bo'lsa, tahlil qilinayotgan bitim quyidagi ikkita talab bajarilgan taqdirda bunday bitim bilan taqqoslanishi mumkin:

bitimlarning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlari bir-biri bilan to'liq taqqoslansa;

taqqoslanadigan bitim bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotuvchisi bir xil tovarlar (ishlar, xizmatlar) bozorida ustun mavqega ega bo'lmasa.

Amalda qo'llanilishi. Bir nechta taqqoslanadigan bitimlar to'g'risida ma'lumot mavjud bo'lgan taqdirda taqqoslanadigan bozor narxlari usulini qo'llashning bosqichma-bosqich algoritmini ko'rib chiqamiz.

1-qadam. Taqqoslanishda qo'llanadigan narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar o'sib borish tarzida tartibga keltiriladi. Bunda rentabellikning har bir ko'rsatkichiga, eng kamidan boshlab o'z tartib raqami beriladi. Agar tanlanma rentabellikning ikki va undan ortiq bir xil ko'rsatkichini o'z ichiga olsa, unga barcha shunday ko'rsatkichlar kiritiladi.

2-qadam. Bozor narxlari oralig'ining minimal qiymatini aniqlaymiz. Buning

uchun taqqoslanadigan ko'rsatkichlar soni 4 ga bo'linadi. Masalan, namunada 12 ta ko'rsatkich mavjud, $12/4 = 3$. Biz 3-raqamli narx qiymatini va keyingisini olamiz. Ushbu qiymatlarning o'rtacha arifmetik qiymatini topamiz. Bu intervalning minimal qiymati bo'ladi.

Bo'linmada qoldiqli son bo'lishi mumkin. Masalan, intervalda 13 ta qiymat bor edi, $13/4 = 3,25$. Bunday holda, 4-ko'rsatkichni olishimiz kerak (butun bo'limgan sonni yuqoriga yaxlitlash).

3-qadam. Bozor narxlari oralig'ining maksimal qiymatini aniqlaymiz. Buning uchun namunadagi qiymatlar soni 0,75 ga ko'paytiriladi va o'rtacha arifmetik qiymat keyingi o'sib boruvchi qiymat bilan aniqlanadi. Misol uchun, namunada 12 ta narx qiymati mavjud, $12 \times 0,75 = 9$. Biz 9 va 10 raqamli qiymatlarni olamiz va o'rtacha arifmetikni topamiz. Agar 0,75 ga ko'paytirilganda, qoldiqli son bo'lsa, uni yaxlitlaymiz. Masalan, 13 ta qiymat oralig'ida $13 \times 0,75 = 9,75$. Bunday holda biz 10 raqamini olamiz.

4-qadam. Tahlil qilinayotgan bitim narxi intervalga mos kelishini tekshiramiz. Agar u oraliq "ichida" bo'lsa, u bozor narxlariga muvofiq bo'lgan narx deb hisoblanadi. Agar narx bozor narxlari oralig'ining eng kam miqdoridan kam bo'lsa yoki uning eng ko'p miqdoridan ko'p bo'lsa, ushbu narx bozor narxlariga muvofiq bo'limgan narx deb e'tirof etiladi. Mazkur nomuvofiqlik mavjud bo'lgan taqdirda, soliq solish maqsadida bozor narxlari oralig'ining o'rtacha qiymatiga teng bo'lgan narx qabul qilinadi. Soliq solish maqsadida ushbu aniqlangan narx, byudjet tizimiga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini kamaytirmasa yoki soliq to'lovchi zararining summasi oshishiga olib kelmasa qo'llaniladi.

Xulosa va takliflar.

1. Nazorat qilinadigan bitimi mavjud bo'lgan holda bu haqidagi xabarnomani taqdim etmaganlik uchun javobgarlikni belgilanishi va nazorat qilinadigan bitim to'g'risidagi xabarnomani taqdim etish uchun yagona muddatning o'rnatilishi soliq nazoratini amalga oshirish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

2. Soliq kodeksiga taraflaridan biri O'zbekiston Respublikasining soliq

rezidenti bo'lgan o'zaro bog'liq shaxslar o'rtasidagi bitimlarni nazorat qilinadigan tashqi savdo bitimlari deb e'tirof etilishi to'g'risida o'zgartirish kiritish va bunda bitimlar bo'yicha daromadlarning tegishli kalendar yildagi summasi bir milliard so'mdan ortiq bo'lishini inobatga olinishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri). 176-178 moddalar. www.lex.uz/docs/4674902.